



**O'ZBEK FALSAFASINING SHAKLLANISHI BO'LGAN E'TIBOR. XXI ASR
O'ZBEK FAYLASUFLARI VA ULARNING ILMUY MEROSSI.**

Bahronova Sabina Elmurod Qizi

*Denov Tadbirkorlik Va Pedagogika Instituti Pedagogika Fakulteti Maktabgacha Ta'lim Yo'nalishi
1-Bosqich Talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asr o'zbek faylasuflari va ularning ilmiy merosini tadqiq etishga alohida e'tibor berilib, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida fikr yuritilgan. O'zbek faylasuflari va ularning faoliyati, maqsadi yoritilgan. XXI asr o'zbek faylasuflarining ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: falsafa, tadqiqot, ijtimoiy hayot, dunyoqarash, milliy istiqlol g'oyasi.

KIRISH

Mustaqillikning taraqqiyot yo'li mamlakatimizda har soha rivoji hamda keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalari kabi falsafada ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatini kasb etadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: "Bir so'z bilan aytganda, yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish "-davr talabi, nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan bahsga kirish uchun uning qarashlari va g'oyasi, falsafani ko'proq bilishimiz kerak va uning o'zidan ham puxtaroq egallashimiz lozimdir.

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni 1999-yil tashkil topgan. Bugungi kunda 300dan ortiq a'zosi bor milliy jamiyat hisoblanadi. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni "nashriyoti mavjud. Juhon va O'zbekiston falsafasining taraqqiyot bosqichlari, zamonaviy yo'nalishlari va dolzarb ijtimoiy muammolarini tadqiq qilish, xalqimizning milliy g'oyasi va o'zligini anglash, milliy tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish, bu jabhadagi keng ommalashtirishda faylasuflarning ishtirokini ta'minlashdan iborat. Shu bilan birga O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining ijtimoiy fanlar, jahon va O'zbekiston falsafasi bo'yicha o'quv va yordamchi adabiyotlar tayyorlash va chop etish, zarur ishlanmalar, taklif va tavsiyalar tayyorlash, targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq bir qator dolzarb vazifalar ham bor. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni a'zolari "Falsafa tarixi", "Ontologiya", "Gnoseologiya", "Ijtimoiy falsafa", "Mantiq", "Etika", "Estetika", "Sotsiologiya", "Politologiya", "Kulturologiya" kabi an'anaviy yo'nalishlar bilan birga "Ma'naviyat falsafasi", "Inson falsafasi", "Qadriyatlar falsafasi", "G'oyalar falsafasi", "Siyosiy falsafa", "Huquq falsafasi", "Din va hurfikrlilik falsafasi" singari sohalarda ham ko'plab tadqiqotlar olib boradilar. Keyingi yillarda esa "Iqtisod falsafasi", "Huquq falsafasi", "Islohotlar falsafasi", "Axborot falsafasi" kabi zamonaviy yo'nalishlarga oid tadqiqotlar ham qo'shilmoqda. Jamiyat a'zolari uchun hozirgi davri uchun muhim bolgan ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy tarbiya va mafkuraviy faoliyat masalalariga oid tadqiqotlar va izlanishlar davom



ettirilmoqda. Bu yo'nalishda yaqinda jamiyat tayyorlagan " Ma'naviyat izohli lug'ati "ning 14ming nusxada keng jamoatchilikka tarqatildi, "Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi " o'quv majmuasi "Yangi O'zbekiston g'oyasi " turkumidagi risolalar tayyorlandi va chop etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda bugungi yangi O'zbekistondagi faoliyat va takomillashuv bizning bevosita muvaffaqiyatimizdir. Falsafiy tafakkurining ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o'zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan. Falsafaning vujudga kelishi falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiylar ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Falsafa barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam-meditsina yoki ta'lif, san'at yoki madaniyat sohasi vakili bo'ladimi, bundan qat'iy nazar-hayotning o'z kasbining ma'no mazmunini yaxshi tushunmaydi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov.I.A O'z kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan qurmoqdamiz. -T.:1999yil
- 2.Falsafa asoslari. Q.Nazarov. -T.:O'zbekiston. 2005
- 3.Jalolov. A .O'zbekiston:mustaqillik, ma'naviyat,mafkura, -T.:O'zbekiston. 1994.
- 4.Jahon falsafasi qomusi. 2-jild. -T.:Ma'naviyat nashriyoti, 2021-yil.
- 5.uz.wikipediya. org.
- 6.cyberleninka.ru.
- 7.uz.Pedia.